TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING PAYDO BO‘LISHI

Xo‘janazarov Serob Murodillo o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistranti
Tel:+998908995799

Annotatsiya: Ushbu tezisda Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga ta’sir etgan omillar, uning tarixiy sharoiti va asosiy g‘oyalari yoritiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mintaqada siyosiy, ijtimoiy va madaniy inqiroz kuchayib, eski ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolgan edi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi ham mahalliy ziyolilarni islohotlar haqida o‘ylashga undadi. Jadidlar yangi usul maktablarini ochib, dunyoviy bilimlarni targ‘ib qildilar. Ularning asosiy g‘oyalari ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘zlashtirishdan iborat edi. Shuningdek, ular jamiyatni yangilash, ayollar ta’limini rivojlantirish va milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratdilar

Kalit so‘zlar: jadidchilik, Turkiston, ma’rifatparvarlik, mustamlakachilik, usuli jadid, islohot**.**

Kirish: Jadidchilik yirik va yaxlit ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida Kavkaz, Rossiya, Turkiya va O‘rta Osiyo musulmonlari orasida keng tarqalgan. U ijtimoiy-siyosiy sohalarda jahon sivilizatsiyasi qo‘lga kiritgan yutuqlardan xalqni bahramand bo‘lishga chaqirdi, milliy cheklanishlar, ma’naviy tanazzullar sababini ochiq-oydin xalqqa tushuntirishga harakat qildi. Shu sababli, jadidlarning boy merosini har tomonlama xolisona o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

XVIII asrning birinchi choragida va keyingi yillarda O‘rta Osiyo sultonlarining o‘zaro urushlari o‘lkada tinchlik, bahamjihatlik o‘rnini parokandalik, o‘zaro nizolarning ko‘payib ketishiga sabab bo‘ldi. O‘zaro kelishmovchilik va parokandalik esa oxir-oqibatda XIX asrning ikkinchi yarmida o‘lka yerlarini Chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishiga olib keldi.

Mustamlakachilar tomonidan barcha boyliklar Chor Rossiyasiga tashib ketildi natijada Turkiston har tomonlama, ayniqsa, iqtisodiy tomonlama chor Rossiyasiga qaram qilib qo‘yildi.

XIX asrning 60-yillaridan to 1917-yilgacha bo‘lgan davrda paxta yetishtirishni rivojlantirish, undan tobora ko‘proq foyda olish harakati butun Turkiston o‘lkasi bo‘ylab keng quloch yoydi. Chor Rossiyasi Turkistonda paxta yetishtirishni kengaytirish orqali iqtisodiy foyda olishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, u Amerika paxtasiga qaramlikni kamaytirishni ham ko‘zlagan.. Biroq mustamlakachilarga paxta dalalariga ishlatish uchun arzon ishchi kerak bo‘lgan Turkiston aholisi bu talablarga mos kelmas edi natijada esa mustamlakachilar tomonidan mahalliy aholining ziyoli qatlamini yo‘q qilish yoki o‘z tomoniga og‘dirish va aholini ilm olishini cheklash siyosati qo‘llanila boshlandi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad aholining ongsizlantirish va o‘ziga bo‘y so‘ndirish edi. Chor Rossiyasi tomonidan olib borilgan bu siyosat ko‘p o‘tmay Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishiga turtki bo‘ldi.

XIX asr oxiridan Jadidchilik harakati shakllangan bo‘lsa-da balki XX asr boshlarida maydonga chiqdilar, va Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho‘lpon kabi tom ma’nodagi jadidlar bilan birga Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Abay, Mulla Nafas, Zinhoriy singari ma’rifatparvar shoirlar tarix sahnalariga chiqa boshladilar.

Adabiyotlar tahlili: Jadidchilik harakati va uning Turkistondagi o‘rni masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Tanlangan asarlar”ida jadidchilik g‘oyalari, ma’rifatparvarlik yo‘nalishlari va yangi usul maktablarining ahamiyati bevosita manba sifatida yoritilgan. D. Alimova va D. Rashidova tadqiqotlarida Behbudiyning tarixiy tafakkuri, uning milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni chuqur tahlil etiladi.

H. Ziyoyev asarlarida esa Turkistonning mustamlaka davridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Chor Rossiyasi siyosati hamda unga qarshi yuzaga kelgan jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari keng ochib berilgan. Shuningdek, muallif Turkiston xalqlarining ozodlik yo‘lidagi kurashini tarixiy manbalar asosida yoritadi. Ushbu

adabiyotlar jadidchilik harakatining mohiyatini, uning paydo bo‘lish omillarini va rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Jadidlar paydo bo‘lgan ilk kunlardan boshlab mamlakatda avj olgan jaholat va xurofotga qarshi chiqib, ham mahalliy, ham mustamlakachilar zulmi ostida ezilayotgan xalq ahvolini yaxshilash yo‘llarini qidirdilar. Jadidlar mavjud ijtimoiy inqirozdan chiqishning asosiy yo‘li sifatida ma’rifatni tanladilar. Mamlakatda ma’rifiy islohotlar o‘tkazish orqali xalqni jaholat va xurofot botqog‘idan taraqqiyot sari olib chiqish mumkin degan xulosaga keldilar. Shuning uchun ular dastavval dunyoviy maktablar – “usuli savtiya” maktablari tashkil etishga kirishdilar, ularning bu faoliyatini ro‘kach qilgan holda sovetlar davrida yaratilgan adabiyotlarda esa aksariyat bitta masala – jadidlar faoliyati faqat ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan cheklanganligi e’tirof etiladi. Ammo keyingi davrda olib borilgan tadqiqotlar va jadidlar harakatiga xolisona yondashuv shuni ko‘rsatadiki, ular bu maktablarni tashkil etish orqali ulug‘ va ezgu maqsadlarni ko‘zlagan edilar, ya’ni jadid maktabini tuzishdan maqsad, bolsheviklar aytganidek, faqat savdo xodimlarinigina tayyorlash emas, balki xalqning umumiy saviyasini ko‘tarish, zamonaviy fanlarni egallagan muhandis, shifokor, jurnalist, huquqshunosdan tortib, davlat arbobigacha bo‘lgan kishilarni tarbiyalash va ular yordamida davlat idoralarini yerlilashtirish, shu tarzda mustamlakachilarni Turkiston tasarrufidan siqib chiqarish edi. Jadidlar uzoq yillardan beri o‘zining mustamlakachilik siyosatini olib borayotgan bosqinchilarga qarshi evolyutsion-tadrijiy bosqich va tinchlik yo‘li bilan kurash olib borishga kirishdi.

Xulosa: Jadidchilik harakati Turkiston tarixida tub burilish yasagan muhim ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy hodisalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy g‘oya va maqsadlari nihoyatda keng qamrovli va chuqur mazmunga ega bo‘lib, avvalo jamiyatni o‘rta asrchilik qoloqligi, feodal munosabatlar va xurofotdan xalos etishga qaratilgan edi. Jadidlar “usuli qadim” ta’lim tizimini keskin tanqid qilib, uning o‘rniga zamonaviy bilimlarga asoslangan yangi usul maktablarini joriy etishni zarur deb bildilar. Ular ilm-fan, texnika va madaniyat yutuqlarini o‘zlashtirish orqali Turkistonni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish mumkinligiga qat’iy ishondilar.

Jadidchilik harakatining yana bir muhim jihati milliy uyg‘onish g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq edi. Jadidlar millatning o‘zligini anglash, tarixiy xotirasini tiklash va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashni taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rdilar. Shu bois ular nafaqat ta’lim tizimini isloh qilish, balki matbuot, adabiyot va teatr orqali ham xalq ongini o‘zgartirishga harakat qildilar. Ularning sa’y-harakatlari natijasida jamiyatda yangicha fikrlash, dunyoqarash va tafakkur shakllana boshladi.

Jadidlarning siyosiy qarashlari ham alohida e’tiborga loyiqdir. Ular Turkistonda milliy davlat barpo etish, konstitutsiyaviy boshqaruv tizimini joriy etish, parlament asosidagi demokratik jamiyat qurish g‘oyalarini ilgari surdilar. Bu esa o‘sha davr uchun nihoyatda ilg‘or va jasoratli fikrlar edi. Shuningdek, jadidlar turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy qo‘shin tuzish, iqtisodiy mustaqillikka erishish kabi masalalarni ham kun tartibiga qo‘ydilar.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy islohotlar dasturini ham o‘zida mujassam etgan kompleks harakat bo‘lgan. U Turkiston xalqini uyg‘otishga, uni zamonaviy sivilizatsiya yutuqlariga yaqinlashtirishga xizmat qildi. Jadidlarning orzu va intilishlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ularning boy merosi milliy taraqqiyot yo‘lida muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 1997.

2. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo‘ja va uning tarixiy tafakkuri. – T., 1999.

3. Ziyoyev H. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – T.: Sharq, 2006

4. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII-XX asr boshlari). – T.: Sharq, 1998.